

**ASARINING TUTGAN O‘RNI**

**Muslim BAYMIROV**

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instiuti “Aqoid va fiqhiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

*E-mail.:boymirovmuslim@gmail.com*

*Tel.: +99891 190-81-90*

Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa bo‘lsada, ba’zi masalalarda mazhab asoschilarining so‘zi olingan. Shundan kelib chiqib, bu mazhab faqat Abu Hanifaning so‘zi va fikrlaridan iborat emas, balki shogirdlarining so‘z va fikrlari ham bu mazhabni tashkil qiladi. Bu so‘z va fikrlarni saqlanib qolishida imom Muhammad Shayboniyning mehnati katta. U kishining asarlari bu mazhabni tadqiq qiluvchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Hanafiylik mazhabidagi usul va furu’ qoidalarini o‘z ichiga olgan kitoblar qatorida Ibn Nujaymning “Al-Ashboh van nazoir” kitobining ahamiyati katta. Ibn Nujaymga “Ikkinchi Abu Hanifa” degan nomning berilishi<sup>1</sup> u zotning hanafiylik mazhabidagi xizmatini ko‘rsatadi. Ibn Nujaym Qosim ibn Qutlubg‘o, Burhon Karxiy, Amin ibn Abdul’ol hanafiy, Sharafiddin Balqiniy, Ibn Shilbiy nomi bilan mashhur bo‘lgan shayxulislom Ahmad ibn Yunus, Abul Fayz Sulamiy va Nuriddin Daylamiylarning qo‘lida fiqhni o‘rgangan.

Ma’lumki, Imom Abu Tohir Dabbos va Imom Karxiylar fiqhiy qoidalar borasida asarlar yozishga qo‘l urganlar<sup>2</sup>. Lekin Ibn Nujaym ushbu kitobi bilan ularning mehnatini takomiliga yetkazgan. Bu asarning e’tiborga molik tarafi shundaki, u barcha ilm ahli va faqihlar uchun birdek maqsadni ko‘zlagan. Bu fikrni “Al-Ashboh van nazoir” asariga yozilgan sharh va hoshiyalarning ko‘pligi tasdiqlaydi. Bu esa, bir tomondan ushbu kitob qay darajada yukasak ekanini

<sup>1</sup> Abu Abdulloh Shamsiddin ibn Muhammad Afg‘oniy. Juhud al-ulamoil hanafiya fi ibtol aqoidil quburiya. – Riyoz: Dorus Sami’iy, 1996. – J.1. – B. 448.

<sup>2</sup> Ibn Nujaym. Al-Ashboh van nazoir. Tahqiq, Doktor Muhammad Muti’ Hofiz – Damashq: Dorul fikr, 2005. – B. 4.

anglatsa, boshqa tomondan bir necha asr, hatto hozirgi kunga qadar ilm majlislarida hujjat keltirishda asosiy manba bo'lganini ifoda qiladi.

“Al-Ashboh van nazoir” asari muallif yozgan oxirgi kitob ekanini inobatga olib, kitobdagi ma'lumotlar muallif hayoti davomida izlangan, o'rgangan, eshitgan, o'qigan va tadqiq qilgan masalalarning qaymog'i deb xulosa qilishimiz mumkin. Muallifning foydalangan adabiyotlar ro'yxatini sanab o'tganda keltirgan manbalari fikrning qay darajada to'g'ri ekanini isbotlaydi. Zero, foydalanilgan kitoblarning o'zi hanafiyik mazhabidagi mo'tabar manba hisoblanadi. Xususan, Ibn Nujaym: “Endi 968 yilning oxirlariga qadar to'plagan fiqhiy kitoblarim ichidan ma'lumot olgan manbalarimni sanab o'taman”, deydi<sup>3</sup>. Ular quyidagi kitoblar:

Hidoyaning sharhlari: “An-Nihoya”, “G'oyatul bayon”, “al-Inoya”, “Me'rojod diroya val binoya”, “al-G'oya”, “Fathul qodir”;

Kanzning sharhlari: “Zayla'iy”, “Ayniy va Miskin”;

Quduriyning sharhlari: “as-Sirojul vahhoj”, “al-Javhara”, “al-Mujtabo”, “al-Aqto”;

Majma'ning sharhlari: “al-Musannaf”, “Ibnul Malik”;

Ibn Amir Hojining “Sharhu munyatul musolli”, “Sharhul vofiy”, “Sharhul viqoya van nuqoya”, “Izohul Isloh”, Alloma Forisiyning “Sharhu talxisil jome'il kabir”, “Sodrush Shahidning Talxisul jome'”, Mullo Xusravning “Sharhu duroril g'uror”, Kosoniyning “al-Badoi”, “Sharhut tuhfa”, “al-Mabsut sharhul kofiy”, Hokim Shahidning “Kofiy”, “Hidoya”, Qozixonning “Sharhul jome'is sag'ir”, “Sharhu Muxtasarit Tahoviy”, “Ixtiyor”;

Fatvo kitoblaridan: “Xoniya”, “Xulosa”, “Bazoziya”, “Zahiriya”, “Valvolijiy”, “Umda”, “Udda”, “Sug'ro”, Husom Shahidning “Voqe'ot”, “Qunya”, “al-Munyatul val bug'ya”, “Maalul fatovo”, Mahbubiyning “at-Talqih”, Qalonisiyning “at-Tahzib”, “Fatovo qoril hidoya”, “al-Qosimiya val imodiya”, “Jome'ul fusulayn”, Abu Yusufning “Xaroj”, Xassofning “Avqof”, “Is'of”, Qudsiyning “al-Hoviy”, “at-Tatimma”, Rizaviyning “al-Muhit”, “Zaxira”, “Sharhu manzumin nasafiya”, “Ibn Vahbon va Ibn Shahinaning manzumaga sharhi”,

---

<sup>3</sup> Ibn Nujaym. Al-Ashboh van nazoir. Tahqiq, Doktor Muhammad Muti' Hofiz – Damashq: Dorul fikr, 2005. – B. 12-13.

“Sayrofiya”, “Xizonatul fatovo”, “Xizonatul Akmal”ning ba’zi qismi, “Sirojiya”ning ba’zi qismi, “Tatarxoniyah”, “at-Tajnis”, “Xizonatul fiqh”, “Hayratul fuqaho”, “Manoqibul Kardariy” va “Tabaqotu Abdilqodir” kabi kitoblar”<sup>4</sup>.

Muallif kitob muqaddimasida shunday deydi: “Fattoh bo‘lgan zotning karamidan shu narsani umid qilamanki, bu kitob Alloh taoloning havli va quvvati ila o‘z nihoyasiga yetsa, kitobxon uchun quvonch, mudarris uchun murojaat qilish manabai, tadqiqotchi uchun izlagan narsasini topish bulog‘i, qozi va muftiylar uchun tayanch, izlanuvchilar uchun o‘lja va bir masalada qiynalib qolganlarga yordamchi bo‘lishini so‘rayman”<sup>5</sup>.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Ibn Nujaym kitobni yozishdan oldin o‘z oldiga qo‘ygan bu maqsadni amalga oshira olgan. Muallif kitobning tuzilishi haqida ma’lumot berishicha kitob yettita fandan iborat:

Birinchi bo‘lim (fan) qoidalar xususida bo‘lib, yigirma to‘rtta qoidani o‘z ichiga olgan.

Ikkinchi bo‘lim foydalar xususida bo‘lib, tahorat kitobidan faroiz kitobigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Bu ma’lumotlar “Kanzud daqiq” asarida kelgan tartib asosida keltirilgan.

Uchinchi bo‘lim o‘xshash va chalkash masalalardagi jam va farqqa bag‘ishlangan.

To‘rtinchi bo‘lim alg‘ozlar (fiqhiy masalalarga doir topishmoqlar) xususida, beshinchi bo‘lim hiylalar xususida, oltinchi bo‘lim ashboh van nazoir (bir-biriga o‘xshash va chalkash masalalar) xususida, yettinchi bo‘lim hikoyalar xususida bo‘lib, Imom A‘zam, Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy va oldin o‘tgan mashoyixlardan rivoyat qilingan hikoyalar keltirilgan<sup>6</sup>.

Alloma Hamaviy “G‘amzu uyunil basoir” kitobining hoshiyasida shunday deydi: “Ushbu kitob hajmi kichik, iboralari qisqa bo‘lsada, haqiqat durlari ila to‘la

---

<sup>4</sup> Ibn Nujaym. Al-Ashboh van nazoir. Tahqiq, Doktor Muhammad Muti’ Hofiz – Damashq: Dorul fikr, 2005. – B. 12-13.

<sup>5</sup> Ibn Nujaym. Al-Ashboh van nazoir. Tahqiq, Doktor Muhammad Muti’ Hofiz – Damashq: Dorul fikr, 2005. – B. 11.

<sup>6</sup> Ibn Nujaym. Al-Ashboh van nazoir. Tahqiq, Doktor Muhammad Muti’ Hofiz – Damashq: Dorul fikr, 2005. – B. 1-8.

bo'lgan bamisoli dengiz, eng qimmatbaho boyliklarga ega bo'lgan xazinadir. Har bir qozi hukm chiqarishda unga muhtoj bo'ladi. Muftiy esa, fatvo berishda undan foydalanishga majbur bo'ladi".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu kitobga nisbatan ko'p olimlar maqtovlar aytgani bu kitob qay darajada muhim manba ekanini anglatadi. Muallif bu kitobni har xil saviyadagi insonlar o'qishi uchun mo'ljallagan bo'lib, kitobdagi ma'lumotlar fiqh ilmida yuqori bosqichga chiqqan faqihni zeriktirmaydi va ayni paytda endigina fiqh ilmini o'rganishni boshlagan talabaga ham qiyinlik qilmaydi. Qolaversa, O'zbekiston diyorida hanafiylik mazhabi keng tarqalgani va Ibn Nujaym ushbu asarida Mavorounnahrlik allomalarning asaridan foydalangani tufayli bu asarni tadqiq qilish ahamiyati yanada oshadi. Zero, yurtimiz allomalari qoldirgan qimmatli fikr va mulohazalarni o'rganish O'zbekiston farzandlarining burchidir.